

Assalomu-alaykum hurmatli Ommaviy axborot vositalari xodimlari, matbuot anjumanli mehmonlari!

Xabaringiz bor kuni kecha Muhtaram Prezidentimizning Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomalari keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Xususan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va barcha tizim-tashkilot xodimlari mazkur tarixiy Murojaatnomani diqqat bilan tinglab, o'zimiz uchun aniq rejalarini belgilab oldik. Murojaatnomada mamlakatimizning barcha sohalari va uning mavjud muammo va yutuqlari, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi. Jumladan, Murojaatnomaning Oltinchi yo'nali shida, iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, so'nggi olti yilda investitsiyalar hajmini yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshganligi, kelgusi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinib, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo'lishi, Jumladan, umumiyligi 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihami ishga tushirilishi, va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlangani aytib o'tildi.

Shuningdek, Murojaatnomada bu yil boshlangan «Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti» dasturi o'z samarasini berayotgani, bir yilning o'zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqqanligi, Yevropa bozorlariga tekstil, elektr texnikasi, charm-poyabzal va boshqa tayyor mahsulotlar eksportini kamida 2 barobar oshirilishi, mahsulotlar eksporti bo'yicha hozirgi 9 ta bosqichdan iborat bojaxona rasmiylashtiruvni 3 barobar qisqarishi, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha asosiy muzokaralarni yakunlab, ichki qonunchilikni moslashtirish, yangi standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligi alohida ta'kidlandi.

Albatta, bunday muhim jarayonlarda bizning o'rnimiz va faolligimiz o'ta muhm hisoblanadi. Shu o'rinda o'z poyoniga yetib borayotgan yilda faoliyatimizning muhim jihatlariga to'xtalib o'tmoqchiman.

2022 yilda asosiy erishilgan natijalar

**1) Standartlashtirish sohasida: "Standartlashtirish to'g'risida"gi yangi qonun** loyihasi 2022 yil 3 noyabrda O'RQ-800-son bilan qabul qilindi. Ushbu qonun loyihasi **Jahon savdo tashkiloti, ISO talablari** va xalqaro atamalar, tushunchalar bilan boyitildi hamda standartlarni qo'llanilishi **ixtiyoriyligi** belgilandi.

Ushbu Qonun bilan standartlarni qo'llashda **davlat aralashuvini kamaytirish** va standartlarni qabul qilish "**konsensus**" asosida amalga oshirilishi kabi normalar kiritildi.

2021-2022 yillarda oziq-ovqat sanoatida – **284 ta**; qurilishda – **355 ta**; energetikada – **562 ta**; qishloq xo'jaligidagi – **223 ta**; mashinasozlik sanoatida – **102 ta**; elektrotexnikada – **78 ta**; neft va gaz sanoatida – **64 ta**; axborot texnologiyalarida – **38 ta**; metallurgiyada – **74 ta** xalqaro standartlar joriy etildi.

Bugungi kunda standartlar davlat fondida **8 945 ta** xalqaro va Yevropa standartlari amalda bo'lib, soha kesimida quyidagilarni tashkil qiladi: to'qimachilik va charm poyabzal mahsulotlari – **1 067 ta**, qurilish materiallari – **2 264 ta**, elektrotexnika – **1 467 ta**, kimyo va neft-gaz – **1 354 ta**, mashinasozlik

mahsulotlari – **1 876 ta**, metallurgiya mahsulotlari – **833 ta**, bolalar o‘yinchoqlari – **84 ta**.

## **O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida 2022 davomida korruptsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida .**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosi ta’minalash maqsadida qaror ilovasi bilan tasdiqlangan 29 ta indikator bo‘yicha Agentlik markaziy apparati hamda uning tizim tashkilotlari kesimida indikatorlar ijrosi ta’minaldi.

### **Siyosat va tartib-taomillar:**

Agentlik va uning tizim tashkilotlari kesimida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo‘lgan 14 ta hujjatlar ishlab chiqildi va 2 ta hujjatga amaldagi qonunchilikka muvofiq o‘zgartirishlar kiritildi.

### **Xavf-xatarlarni baholash:**

O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda uning tizim tashkilotlarining 2022 yil uchun umumiylar xavf-xatarlar haritasi ishlab chiqildi va bugungi kunda 2023 yil uchun mo‘ljallangan harita ishlab chiqilmoqda.

Xavf-xatarlar haritasi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 martdagi 114-son qarori bilan Agentlikka yuklangan vazifalarni bajarish uchun amalga oshiradigan barcha funktsiyalarni qamrab olgan;

### **Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish:**

Agentlikda faoliyat ko‘rsatuvchi 54 nafar markaziy apparat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratasiysi to‘ldirilgan;

Monitoring natijalariga ko‘ra agentlik tizimida foliyat ko‘rsatuvchi xodimlar orasida real yoki potentsial manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanmagan.

### **Korruptsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish:**

Agentlik mehnat shartnomalariga korruptsiyaga qarshi shartlar kiritilgan va ular bilan Agentlikda faoliyat ko‘rsatuvchi 69 ta xodimlar tomonidan tanishilgan;

### **Ishga nomzodlarni tekshirish:**

Agentlikka 2022 yil davomida markaziy apparatning vakant lavozimlariga yangi kadrlar ishga qabul qilinmagan. Shu bilan birga Agentlikning vakant joylariga ishga qabul qilishda ochiq va shaffof tizim joriy qilingan hamda har bir o‘tkaziladigan tanlov jarayoni Agentlikning Feysbuk ijtimoiy tarmog‘i orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda ko‘rsatiladi

### **Ta’lim va kommunikatsiya:**

Agentlikda faoliyat ko‘rsatuvchi 54 nafar xodimlarga Germaniyaning PTB tashkiloti tomonidan Korruptsiyaga qarshi kurashish va ISO 37001 standarti bo‘yicha onlayn seminar tashkil qilindi;

### **Monitoring va nazorat:**

Agentlik va uning tizim tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini monitoringini o‘tkazishda birqancha tadbirlar o‘tkazildi. Bulardan, Agentlik va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi, korruptsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning yetarliliqi va ularning samaradorligi, korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limlari faoliyatining samaradorligi, OAVlarda foydalanuvchilar

tomonidan qoldirilayotgan izohlar, xodimlarni korruptsiyaga qarshi asosiy tartib taomillardan xabardorligi yuzasidan tadbirlar o'tkazilib faoliyat bo'yicha tavsiyalar va aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

### Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralar:

Agentlikda o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlar talablari buzilishi holatlari aniqlanmagan.

### *2) Muvofiqlikni baholash va sinov laboratoriyalarini rivojlantirish yo'nalishida:*

Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro'yxati amaldagi **6 164** turdan **2 444** taga (**1,6** barobarga) qisqartirildi. Natijada mahsulotlarni takroriy sinash va sertifikatlashtirish oldi olindi.

O'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun import qilinadigan xom ashyo mahsulotlari majburiy sertifikatlashtirishdan ozod etildi. Natijada ishlab chiqaruchilarga xom ashyoni to'siqsiz yetkazib berishga zamin yaratildi.

Mavjud sinov laboratoriylar tomonidan **3 752** ta yoki o'tgan davrga nisbatan **3** barobar ko'p sinov uskunalarini xarid qilinib, sinov laboratoriylari yangi uskunalar bilan ta'minlandi hamda mavjudlari modernizatsiya qilindi, shuningdek, xalqaro sinov uslublari joriy qilinib, **4** ta laboratoriya xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi, **13** ta yangi sinov laboratoriya tashkil etildi.

**13** ta yangi sinov laboratoriya (**8** ta oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi, **1** ta EMM, **1** ta yengil sanoat, **3** ta metall) tashkil etildi.

Laboratoriylar moddiy texnik bazasini rivojlantirish maqsadida 2019-2020 yillarda **1,3 mln dollarga** **146 dona** uskuna va **267 mln** so'mlik **543 xil** kimyoviy reaktivlar xarid qilingan.

Natijada **11** ta laboratoriya akkreditatsiyadan o'tkazildi, shundan **4** tasi (*engil sanoat, kimyo, metall va mashinasozlik laboratoriylari*) xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

**Poligrafiya, yengil sanoat, metallurgiya, charm-poyabzal, alkogol, don, sut, yog'-moy, elektromagnit moslashuvchanlik, go'sht** mahsulotlari, ichimlik suvi, bolalar o'yinchoqlari bo'yicha texnik reglament talablari asosida **to'liq sinovlar** o'tkazish imkoniy yaratildi.

Bundan tashqari, **Koreya** texnologiya va standartlashtirish agentligining **2,3 mln doll granti** asosida "**Havo konditsioneri**" mahsulotining energiya samaradorligini baholash bo'yicha laboratoriya tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Toshkent shahrida qiymati **0,4 mln** doll (**3,5 mldr** so'm) bo'lgan metall mahsulotlarini sinash laboratoriyasining yangi binosi tashkil etiladi.

**"O'zbekiston akkreditatsiya markazi"** DUK O'zbekiston Respublikasi nomidan 2022 yil 27 sentyabridan Xalqaro laboratoriylarni akkreditatsiya qilish hamkorligi (**ILAC**) va Xalqaro akkreditatsiya forumi (**IAF**) o'zaro tan olish xalqaro bitimlariga (**ILAC-MRA** va **IAF-MLA**) qo'shildi va "**teng xuquqli a'zo**" sifatida e'tirof etildi.

Natijada, **milliy muvofiqlikni baholash hujjatlari** (*mahsulotlar sinovi natijalari va sertifikatlar*) tashkilotlarga a'zo **116** ta davlatda tan olinib, mahalliy

mahsulotlar xorijiy davlatlar bozoriga kirib borishidagi mavjud **texnik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi**.

**3) Sifat menejmenti tizimlarini joriy etish yo'nalishida:**

Shu bilan birga, **GSP+** tizimida viloyat hokimliklari bilan birligida ishlab chiqilgan tarmoq jadvaliga asosan **1 323 ta** korxonada xalqaro sifat menejment tizimlari joriy etildi.

Ma'lumot uchun: Qoraqalpog'iston Respublikasi **87 ta**, Andijonda **100 ta**, Buxoro **122 ta**, Jizzax **81 ta**, Qashqadaryo **98 ta**, Navoiy **97 ta**, Namangan **105 ta**, Samarqand **105 ta**, Sirdaryo **60 ta**, Surxondaryo **84 ta**, Farg'on'a **103 ta**, Xorazm **94 ta**, Toshkent **97 ta**, Toshkent shahrida **90 ta**.

To'qimachilik sohasida faoliyat yurituvchi **72 ta** korxonaga **Oeko Tex**, **6 ta** korxonaga **Sedex**, **2 ta** korxonaga **BCSI** xalqaro standartlari va elekrotexnika sohasidagi **14 ta** korxonaga **SYe** markirovka joriy qilindi.

Ma'lumot uchun: Andijonda – **14 ta**, Farg'on'a – **8 ta**, Buxoro – **6 ta**, Jizzax – **6 ta**, Namangan – **5 ta**, Samarqand – **7 ta**, Surxondaryo – **5 ta**, Qashqadaryo – **1 ta**, Navoiy – **1 ta**, Xorazm – **2 ta**, Toshkent – **30 ta**.

Shu bilan birga, agentlik tomonidan **1 688 ta** mahalliy eksportyor korxonalarga konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

Ma'lumot uchun: standartlashtirish – **664 ta**, sifat menejment tizimlari – **377 ta**, sertifikatlashtirish – **303 ta**, qadoqlash va yorliqlash – **110 ta**, metrologiya – **91 ta** va boshqa masalalarda – **143 ta**.